
BUYUK IPAK YO'LIDA SO'G'DLIKLAR FAOLIYATI TARIXIGA DOIR MASALALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada insoniyat sivilizatsiyasidagi eng mashhur va ulkan yo'llardan biri- Buyuk ipak yo'li faoliyati va undagi katta taraqqiyot bosqichini boshlab bergan so'g'dliklar masalasi haqida so'z boradi. So'g'd savdogarlarining ipak yo'li orqali g'arb va sharq bilan olib borgan aloqalari, shuningdek, Markaziy Osiyo shaharlari savdo dinamikasini o'sishiga xizmat qilgan omillar haqida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: So'g'd, Buyuk ipak yo'li, Xitoy, Debo, Ipak, Ordos, Maniakh, Tan, Xu, Syuan Zang, Dunxuan, Vizantiya.

ВОПРОСЫ ИСТОРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОГДИЙЦЕВ НА ВЕЛИКОМ ШЕЛКОВОМ ПУТИ

Аннотация. В данной статье говорится об одной из самых известных и огромных дорог человеческой цивилизации - Великом Шелковом пути и о согдийцах, начавших на нем великий этап развития. Обсуждаются связи согдийских купцов с Западом и Востоком через Шелковый путь, факторы, способствовавшие росту торговой динамики городов Центральной Азии.

Ключевые слова: Согд, Великий шелковый путь, Китай, Дебо, Шелк, Ордоc, Маниакс, Тан, Сюй, Сюань Цзан, Дуньхуан, Византия.

ISSUES IN THE HISTORY OF THE ACTIVITIES OF THE SOGDIANS ON THE GREAT SILK ROAD

Abstract. In this article, the most famous in the civilization of mankind and of the great roads – the Great Silk Road, and the issue of the Sogdians, who started the great stage of development in it are discussed. The relations between the Sogdians with the west and the east through the silk road, and the factors that contributed to the growth of the tradedynamics of the Central Asian cities are discussed.

Keywords: Sogd, Great Silk Road, China, debo, silk, Ordos, Maniakh, Tan, Suan Zang, Hu, Dunhuang, Byzantium.

Kirish. Insoniyat tarixida xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan bir nechta savdo yo'llari mavjud bo'lib, ular orasida "hayot yo'li, xalqlar o'rtasidagi najot ko'prigi" deya e'tirof etiladigan Buyuk ipak yo'lining ahamiyati katta bo'lgan. Chunki miloddan avval II asrdan toki milodiy XVI asrgacha faoliyat yuritgan bu yo'l orqali faqat tovarlar emas, balki mamlakatlararo turli qadriyatlar, g'oyalar va yangiliklarlar ham almashinilgan. Bu jarayonlar bevosita savdogarlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, savdo ishlarida tarixchi olim, akademik Bartold tomonidan "Buyuk ipak yo'li finikiyaliklari" degan nom berilgan so'g'dliklarning xizmati katta bo'lgan. Arxeologik tavsifda so'g'dliklarning dastlabki izlari Samarqandning eng qadimiy madaniy qatlamlaridan topilgan bo'lib, miloddan avval VII asrga to'g'ri keladi. O'rta Osiyoning Buyuk ipak yo'lida joylashgan shaharlari orasida So'g'd shahrining tendensiyasi kuchli bo'lib, VI asr boshlaridayoq so'g'd savdogarlari g'arbda O'rta er dengizidan sharqda Yaponiyagacha, janubda Veytnam va Seylon hududigacha borgan edi [1. 27-35]. O'rta Osiyo mintaqasida Turk xoqonligi hukmronligining o'rnatilishi va karvon yo'llaridagi savdo-alloqalarning turklar nazoratiga o'tishi bilan so'g'd savdogarlari uchun ipak yo'lida haqiqiy gegemonlik davri boshlandi. Xoqonlikdagi barcha savdo ishlari so'g'd savdogarlarining qo'lida to'plangan bo'lib, turklarning o'zlari savdo-sotiq san'atini puxta egallamaganliklari uchun Vizantiya bilan ipak savdosida asosiy vositachilik so'g'd

savdogarlariga yuklatilgan edi. Xususan, Gumilyovning "Qadimgi turklar" asarida turk xoqonligi aholisi so'g'd savdogarlari orqali urush o'ljalari va o'lponlarini sotganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Yozma manbalarda "shoxrox" yani bosh yo'l nomi bilan qayd etiluvchi ipak yo'lining ikkita katta yo'nalishlari So'g'd erlaridan o'tgan bo'lib, biri Turfon orqali Qoshg'ar, Oloy u erdan Farg'onaga, ikkinchisi Taklamakon erlaridan boshlanib so'g'd shaharlari orqali Yaqin Sharqga borar edi [6. 43]. Bu ikki yo'nalish ustidan nazorat qilish masalasida so'g'dliklar Parfiya va Baqtriya savdogarlari bilan uzoq vaqt kurash olib borganlar. So'g'dning xalqaro savdoga chiqishi Ustrushona hududi orqali amalga oshirilgan. Ustrushona va Choch hududlari bilan so'g'dliklar yaxshi munosabatda bo'lib, faol tashqi siyosat olib borganlar. Chochning Turk xoqonligi tarkibiga kiritilishi bilan bu jarayon yanada jadallashib ketgan edi. Ilk o'rta asrlarda So'g'd tarkibiga kirgan shaharlar xitoy manbalarida quyidagicha uchraydi: Kan-Samarqand, An-Buxoro, Shi-Kesh, She-Choch va Mi-Maymurg'. Bu shaharlar orasidagi Kesh shahri So'g'dning markazi bo'lib, bu shahar orqali Eron, Afg'oniston va Hindistonga boradigan savdo yo'llari o'tgan [4. 133]. Tarixchi Bichurin so'g'dlik savdogarlar mamlakatdan ipak, kanop, kumush, oltin, simob, dorivor giyohlar, jez, qizil shisha va paxta mahsulotlarini olib chiqib savdo qilganligi haqida ma'lumot beradi [10. 120]. Sharqning qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Xitoy bilan so'g'dliklar o'rtasidagi savdo aloqalari miloddan avval II asrda boshlangan. Ammo mashhur so'g'dshunos V.A.Livshitsning fikricha, mazkur davrdagi so'g'd va Xitoy o'rtasida bo'lgan savdo aloqalarning yozma dalillari mavjud emas. Lekin mashhur tilshunos V.Yaylenko ba'zi lingvistik ma'lumotlarga tayanib, miloddan avval II asrda savdo aloqalari boshlanganini aytadi. So'g'd hududidan topilgan "Vu-shu" tipidagi 5 ta Xitoy tangalari antik davrdanoq bu ikki hudud o'rtasidagi savdo aloqalaridan dalolat beradi. Xitoyning sulolalar tarixiga bag'ishlangan manbalarida, sayyoh, savdogar va elchilarning esdaliklarida so'g'dliklar faoliyatiga va savdo ishlariga keng o'rin ajratilgan. 630-yilda Suyob daryosi vodiysidagi bir qancha So'g'd shaharlariga mashhur xitoylik ziyoratchi Syuan Zang tashrif buryuradi. U o'z kundaligida shunday yozadi: «Saf (Issiqko'l)dan shimoli-g'arbga 500litdan ortiq yo'l bosib, Suye(hozirgi Suyob)ga etib keldik. Bu erda so'g'dlar va turli mamlakatdan kelgan savdogarlar aralashib yashaydilar va to'qilgan jun kiyimlarni kiyadilar. So'g'dlarning o'ndan ortiq shaharlari bo'lib ularning har birining o'z oqsoqoli bor. Ular savdodan tashqari dehqonchilik bilan ham faol shug'illanadilar [5. 47-56].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tanlangan mavzuni o'rganishda asosan qator tarixiy adabiyotlar va keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasidagi ma'lumotlar atroflicha o'rganilgan. Mavzuni yoritishda diskurs tahlil, davriy-xronologik izchillik, komparativ yondashuv kabi metodlardan foydalanilgan.

Xitoy va Vizantiya manbalarida foyda bo'lgan joyga shoshiladigan muvaffaqiyatli savdogarlar sifatida ta'riflangan so'g'd savdogarlari nafaqat o'zlari o'rnamashgan O'rta Osiyo erlari bilan balki Sharqiy Turkiston va Xitoyning shimoliy qismlarida tashkil etgan koloniyalari va atrofda davlatlar bilan keng savdo aloqalarini olib borgan. Xitoyning Tan sulolasi davrida so'g'd savdogarlarining mavqei oshdi va 630-yildayoq diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi. Afrosiyob devorlaridan birida Xitoy imperatori elchilari tomonidan so'g'd podshosiga sovg'alar taqdim etilgani tasvirlangan freska topilgan. So'g'dlar va Xitoy o'rtasidagi savdoning asosiy mahsuloti ipak bo'lgan. Xitoydan asosan xom ipak va shoyi matolar, chinni va yozuv qog'ozlari olib kelingan. IV-V asrlarda so'g'dlar o'zlarining shoyi va ipak matolarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. O'zbekiston janubidagi Bolaliktepa devoriy suratlarida qahramonlar ustiga ipak matolardan tikilgan boy bezatilgan liboslar topilgani buning isbotidir [12. 260]. Rus tarixchisi N.V.Pigulevskaya "dastavval so'g'dliklar faqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, qisman hunarmandchilik buyumlarini sotar edilar. Ipak bilan vositachilik savdosidan boshlab, o'zlari ipakdan mato ishlab chiqish va uni bezashga o'tdilar" deb yozgan edi. So'g'dliklar tomonidan ishlab chiqarilgan ipak mato "debo" nomi bilan atalgan. Bunday ipakning bir parchasi 100 dirham, bir ho'kiz narxi esa 6 dirxam turgan. "Debo" gazlamalari Markaziy Osiyo bozorlarida juda qimmat bo'lib, bunday ipakning bir bo'lagi uchun bitta ot va 16 ta ho'kiz berilar edi [9. 13]. Ipak ishlab chiqarishni o'zlashtirgan so'g'dlik savdogarlar uni sotishda Xitoy bilan ham raqobatlashadi. V asrdan boshlab Ipak yo'li orqali Vizantiya va uning atrofida joylashgan davlatlarni ipak bilan ta'minlab kelgan Xitoy savdogarlari o'rniga, so'g'd savdogarlari Shimoliy Kavkaz orqali ipak va shoyi matolarini bu hududlarga olib bora boshlaydi. VI asrda so'g'dlik savdogar Maniakh Qora dengiz orqali Konstantinopol shahriga borib, "Kavkaz ipak yo'li" ga asos soladi.

E.Vesye "So'g'd savdogarlari tarixi" nomli monografiyasida ta'kidlaganidek: "So'g'dlar nafaqat savdogarlar, balki tarjimonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, fikrni ko'paytiruvchi va

tashuvchilar ham edi" [7. 392]. Xitoy solnomalarida So'g'd yurti - "Xu" nomi bilan, savdogarlari esa "xuliklar" ya'ni so'g'dliklar nomi ostida uchraydi. Tan sulolasi manbalarida so'g'dlik vino sotuvchi savdogarning sopol haykalchasi surati chizilgan bo'lib unda so'g'dliklar jingalak sochli, qalin soqolli, katta burunli va chuqur ko'zli qilib tasvirlanadi. Xitoyliklar so'g'd savdogarlarining madaniyatini qadrlaganlar, so'g'd musiqasi, raqslari, vinosi va kigizdan tayyorlangan uylariga katta qiziqish bilan qaraganlar. Chanyan va Loyanda Xitoy shoirlari so'g'dliklarga atab qasidalar bitganlar. Yapon sayyohlari "Xitoy aristokratlarining taomi va musiqasi xu edi, ularning ayollari Xuning qimmatbaho liboslarini kiyishni yaxshi ko'radilar va poytaxt Chanyan ham xu ranglari bilan bo'yalgan"- deb ma'lumot beradi.

So'g'dlik savdogarlarning Buyuk ipak yo'li orqali chetga chiqaradigan muhim savdo mahsulotlaridan biri bu ot savdosi bo'lgan. O'rta Osiyoda mashhur bo'lgan "samoviy otlar" so'g'd savdogarlari tomonidan g'arb va sharq mamlakatlariga, ayniqsa Xitoy hududiga ko'p miqdorda chiqarilgan. VIII asrdan boshlab Xitoyga ot chiqarishni yo'lga qo'ygan so'g'dlik savdogarlarning Xitoy chegarasida manzilgohlari shakllangan. Bunday manzilgohlardan biri Ordos (hozirgi Shansi) bo'lib u erda so'g'dliklar samoviy otlarni ko'paytirish va sotish bilan shug'illangan. Savdo ko'lami shu darajada katta bo'lganki bu erda 679 ta so'g'd oilasi istiqomat qilgan. S. Klashtorniy yozishicha 714-yilda so'g'd savdogarlari rahbarlariga otlarni muvaffaqiyatli etkazib bergani uchun Xitoy hukumati tomonidan faxriy unvonlar beriladi [11. 214]. Bunga javoban so'g'd savdogarlari 718-yilda Xitoyga zanjirli dubulg'a yuborishadi va Xitoy armiyasi bundan namuna olib qo'shinni temir qalpoqlar bilan ta'minlaydilar. Ot sotish uchun Xitoyga tomon yo'lga chiqqan so'g'dliklar kamida 3-4 ming otni haydab kelishgan. 735-yilda so'g'd savdogarlari Xitoyga 15 ming ot olib borishgan [8. 182]. So'g'dliklarning keyingi yirik savdo markazi Sharqiy Turkistondagi Turfan shahri bo'lgan. M. Is'hoqov O. Smirnovaga asoslanib Turfanda so'g'd savdogarlariga tegishli bo'lgan katta bozor bo'lgani, unda g'arbiy va sharqiy darvozalari mavjud bo'lib jun va ipak gazlamalar sotilganini yozadi [3. 7-8].

Buyuk ipak yo'lida So'g'd shaharlari va savdogarlarining o'rni g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan ediki, bugungi kunda bularni o'rganish va tahlil qilish uchun So'g'dshunoslik nomli alohida yo'nalish shakllangan. Bu soha bilan nafaqat O'rta Osiyo olimlari balki, Yevropa va g'arb olimlari ham faoliyat yuritib kelmoqda. Ular uchun bu sohani o'rganishning asosiy manbasi esa "So'g'd eski xatlaridir". Ingliz tadqiqatchi olimi Auren Steyin tomonidan 1907-yildagi Dunxuan g'arbidagi Xitoy eski devorlaridan topilgan 700 iyeroglif hujjatlari orasida ajralib turadigan 5 ta harf parchalari olimlarda qiziqish uyg'otdi va uzoq vaqt davomida muhokamalarga sabab bo'ldi. Nihoyat bu yozuvlar so'g'd eski yozuvida ekanligi aniqlandi va to'plam holiga keltirildi. Xatlarda Dunxuanda faoliyat yuritgan so'g'dliklar haqida so'z borib, 5 ta xatning ikkitasi shaxsiy, uchtasi tijoriy maqsadlarda yozilgan edi. Taxminan 1500 yil davomida vayron bo'lgan devor ichida saqlanib qolgan bu maktublar olimlarning fikricha ikkitasi Dunxuanda, uchinchisi Kuchada va yana ikkitasi ehtimol, Xitoyning o'sha vaqtdagi poytaxti Louyanda yozilgan. Marv va Panjikentdagi arxeologik izlanishlar vaqtida ham sug'd tilidagi yozuvlar topildi va ularning mazmuni o'rganildi [2. 384]. Bu haqida B. G'afurovning «Tojiklar» asarida to'liq va mukammal ma'lumotlar beriladi. Eski so'g'd xatlarining mazmunini yanada chuqurroq tahlil qilish, so'g'd savdogarlarining ipak yo'li savdosidagi faoliyatiga doir muhim masalalarni o'rganish imkonini beradi.

Xulosa. Buyuk ipak yo'lida asrlar davomida turli tillar, dinlar va turli madaniyatlarga mansub vakillar bilan savdo-sotiq almashinuvi, millatlararo munosabatlarni amalga oshirgan so'g'dlar, savdoda asosiy bosh bo'g'in vazifasini o'tadi. Buyuk ipak yo'li orqali ko'plab hududlar bilan savdo-iqtisodiy aloqada bo'lib, so'g'dliklar o'z madaniyatini boyitdi va shu bilan birga qo'shni mamlakatlar taraqqiyotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. So'g'd manbalari esa Buyuk ipak yo'li tarixiga oid ko'plab yangi ma'lumotlar olish imkonini berdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Ayubov A.R. Особенности эволюции Согдо-Тюркских взаимоотношений в раннем средневековье // Peculiarities of Elevation of Sughdian-Turkic Interrelation in Early Middle Ages. 2016.
2. G'afurov B. "Tojiklar. Qadimgi va O'rta asrlar tarixi" Dushanbe, 1989.

3. Is'hoqov M. «Unutilgan podshiliklardan xatlar» (Bir turkum so'g'd hujjatlari o'zbek tiliga tarjimasi)- Toshkent: Fan nashriyoti 1992.
4. Mavlonov O'. "Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari:shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari". Monografiya-T.: Akademiya, 2008.
5. Орифов А.О., Мирбабаева Н. А. Истоки приоритетных направлений торгово-экономических отношений Согда в I-VIII вв. Н.Э. // Origins of Priority Area Trade and Economic Relations of Sogdiana in I-VIII cc. ВС 2011.
6. Shirinov T. "Markaziy Osiyo qadimgi savdo yo'llari, O'rta asrlarda ipak yo'lining shakllanishi va rivojlanishi" -Toshkent: Fan, 1990.
7. Sullivan M. "XX asr Xitoy san'ati va rassomlari" Kaliforniya univversiteti matbuoti, 1996.
8. Xo'jayev A. "Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar"- T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
9. Yoqubov Y. "Zarafshon yuqori oqimidagi arxeologik yodgorliklar" Dushanbe: 1977.
10. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена.-М.-Л., 1950.
11. Клашторный С. «Қадимги туркий- рун ёдгорликлари Марказий Осиё тарихига оид манба сифатидаъ- М: Н, 1964.
12. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. - М., 1982.